

O‘ZBEKISTONDA JOYLASHGAN SUVLI-BOTQOQLIK YERLAR RAMSAR
KONVENSIYASI RO‘YHATIDA.

Abduxalimova Madinabonu Murodbek Qizi

Andijon Davlat Universiteti magistranti.

Annotatsiya (o‘zbek tilida): *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Ramsar konvensiyasiga kiritilgan 5 ta hududining joylashuvi, biologik xilma-xilliklari hamda suvli-botqoqlik yerlar ko‘chib yuruvchi qushlar uchun muhim ahamiyat kasb etilishi ko‘rsatib utilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ramsar Konvensiyasi, Aydar-Arnasoy ko‘llari, Dengizko‘l, To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlari, Sudochi ko‘li, Jiltirbas ko‘li, Orol dengizi.*

Suvli-botqoqlik yerlar-botqoqliklar, daryolar, ko‘llar va boshqa sernam hududlar suv ekotizimlarini saqlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Suvli ekotizimlarning asosiy vazifalaridan biri bu ular turli o‘simlik va hayvonlar uchun yashash makoni. Qushlar, baliqlar, amfibiyalar va hashorotlar uchun muhim muhit hisoblanadi. Ayniqsa ko‘chib yuruvchi qushlar uchun vaqtinchalik to‘xtash va oziqlanish makoni hisoblanadi. Bundan tashqari, hozirgi global iqlim o‘zgarishi davrida, suvli-botqoqlik yerlar uglerodni (CO₂) o‘zida saqlaydi va bu orqali iqlimni barqarorlashtirishga, global isish jarayonini sekinlashtirishga yordam beradi.

O‘zbekistonda bunday tabiiy hududlarni muhofaza qilishda Ramsar konvensiyasining o‘rni katta. Chunki Ramsar konvensiyasi orqali muhim suv-botqoq hududlar xalqaro ahamiyatga ega hududlar sifatida tan olinadi va maxsus himoya ostida bo‘ladi. O‘zbekiston Ramsar konvensiyasiga 2001-yil 30-avgustda a‘zo bo‘lgan va bu sanadan boshlab O‘zbekiston xalqaro darajada suv-botqoq hududlarni muhofaza qilish majburiyatini olgan. Yurtimizdan bugungi kungacha xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan Ramsar suv-botqoqlik yerlar ro‘yhatiga 5 ta obyekt kiritilgan. Quyida ular haqida batafsil bayon etiladi.

1. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi. 2008-yilda Ramsar konvensiyasida ro‘yhatdan o‘tgan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi O‘zbekistonning sharqiy qismida, Jizzax hamda Navoiy viloyatlarida joylashgan. Umumiy ko‘llar tizimi 363000 gektar maydonni tashkil etadi. Ramsar hududi esa 527100 gektar.

Hududning umumiy tavsifi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Qizilqum cho‘lida joylashgan yirik suv havzasi bo‘lib, u 1969-yilda Chordara suv omboridan favqulodda suv chiqarilishi natijasida shakllangan. Hozirgi vaqtda 100 dan ortiq suv qushlari yashaydi. Bundan 24 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, 12 turi esa IUCN(International Union for Conservation of Nature)ning xalqaro ro‘yhatiga kiritilgan. Yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan Oq bosh o‘rdak ayni shu hududda mavjud. Bundan tashqari hudud migratsiya yo‘lida joylashganligi sababli ko‘plab qushlar uchun qishlash va dam olish joyi hisoblanadi.

Sutemizuvchi hayvonlardan yovvoyi cho‘chka tulki, mushuk va boshqalarni uchratish mumkin. Asosiy o‘simliklardan Qamish (phragmites), Rogoz (Typha), Sho‘ra (salsola) va Tamarikslar o‘radi.

2. Dengizko‘l ko‘li. 2001-yilda Ramsar ro‘yhatiga kiritilgan. Maydoni 31300 gektarni tashkil etadi. Bu ko‘l Qizilqum cho‘lining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan eng katta sho‘r va yopiq suv havzasidir. U Buxoro shaxridan 70km janubi-g‘arbda va Olot shaxarchasidan 35km janubi-sharqda, O‘zbekiston va Turkmaniston chegarasida joylashgan. Ko‘l Markaziy Osiyo cho‘l hududlariga xos tabiiy ekologik sharoitlarga ega. U G‘arbiy Sibir va Qozog‘istondan Hind-Pokiston hududlariga migratsiya yo‘lida joylashganligi bois, ko‘chib yuruvchi qushlar uchun muhim to‘planish va qishlash joyi hisoblanadi. Shuningdek, yuqori biologik xilma-xilligi, endemik baliklar sonining ko‘pligi va katta baliq zahiralari bilan ajralib turadi. Hudud quyidagi yo‘qolib borayotgan va himoyaga muhtoj turlarni qo‘llab quvvatlaydi: Yo‘qolib borayotgan turlar Amudaryo sazan baliqlari (*Acipenser nudiiventris*), Katta Amudaryo belkurakbaliq, oq boshli o‘rdak hamda zaif turlar Markaziy Osiyo toshbaqasi, cho‘l varani, marmar o‘rdak kabilar.

3. To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlari. Ushbu suv omborlari Navoiy va Buxoro viloyatlari chegarasida joylashgan muhim irrigatsiya va ekologik inshootlar bo‘lib, 2020-yilda Ramsar konvensiyasiga kiritilgan 3- hudud hisoblanadi. To‘dako‘l minerallashtirgan suvga ega bo‘lsa, Quyimozor – Buxoro va Kogon shaxarlari uchun asosiy ichimlik suvi manbaidir. Hududda taxminan 229 ta qush turi, shu jumladan yo‘qolib ketish havfi ostida bo‘lgan oqbo‘sh o‘rdak ham ro‘yhatga olingan, biogeografik hilma xillikni saqlab qolish uchun ularning 1% dan ko‘prog‘i shu makonda qishlaydi. Bundan tashqari O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan ko‘plab endemik turlar ayni shu hududda uchraydi. Jumladan, Amudaryo kurakburuni va Baqra balig‘i. To‘dako‘l sohillarida sutemizuvchilardan jayron, tulki, tolay tovushkoni, yovvoyi mushuk kabi hayvonlarni ham uchratish mumkin.

4. Sudochi ko‘li. 2023yilning may oyida Ramsar ro‘yhatiga kiritilgan va xalqaro ahamiyatga ega muhofaza etiladigan suv-botqoq ekotizimi hisoblanadi. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida, Amudaryo deltasi yaqinida joylashgan. Orol dengizi inqirozi ta‘sirida shakllangan ekologik hududlardan biri. Umumiy maydoni 84000 gektardan oshadigan ushbu ko‘llar tizimida hozirda 230 dan ortiq turdagi minglab ko‘chmanchi va doimiy yashovchi qushlar mavjud. Bundan tashqari Mo‘ynoq tumanida joylashgan Sudochi ko‘llar tizimida ko‘p sonli Pushti flamingolarni uchratish mumkin.

5. Jiltirbas ko‘li. 2024-yilda Ramsar konvensiyasi (xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq yerlar ro‘yhati) ga O‘zbekistondagi 5-obyekt sifatida kiritilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan. Maydoni 64000 gektardan ortiq. U Orol dengizi qurib borayotgan bir paytda, Jiltirbas ilgari dengizning bir qismi (qo‘ltig‘i) bo‘lgan va hozirda alohida ko‘l sifatida saqlanib qolgan noyob suv havzasidir. Hududda qamishlarni ko‘p uchratish mumkin. Mahalliy aholi uchun baliq ovlash va qamish terishga ruxsat etilgan. Chunki qamish qurilish xomashyo sifatida ishlatiladi. Shuningdek, Ushbu hudud sobiq Orol dengizi tubining qurigan hududlaridan kelib chiqqan tuzli chang

20-Iyul, 2026-yil

bo‘ronlarining ta‘sirini yumshatishga yordam beradi. Hududda O‘zbekiston Qizil kitobi va IUCN qizil ro‘yhatiga kiritilgan bir nechta ko‘chib yuruvchi qushlar koloniyalari mavjud bo‘lib ularning soni mintaqaning umumiy xilma-xilligini saqlab qolishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ramsar hududlari – bu tabiatning eng muhim va nozik ekotizimlaridan biri hisoblanadi. Ularni muhofaza qilish orqali nafaqat biologik xilma-xillik balki insoniyatning kelajagi ham himoya qilinadi. O‘zbekistonda ushbu hududlarni asrash va ulardan oqilona foydalanish ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

“Ramsar wetlands in Uzbekistan” Feruza Axmedjanovna Nazarova “science and education “scientific journal. 2023y

Buxoro viloyatidagi suv omborlari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati. Muhammadova Sabina Yo‘ldosh qizi. 2023y

I.S.Zoon, Mixael X. Glans. Aralskaya ensiklopediya. -M “Mejdunarodnie otnosheniya”, 2008.